

PAHLAVON MAHMUD VA AHMAD YASSAVIY SHE'RLARIDA TASAVVUFIY ISTILOHLAR VA ULARNING ILMIY TAHLILI.

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.053>

Yarasheva Parizoda Alisher qizi

Buxoro davlat universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbaashunoslik

2-kurs magistranti

p.yarasheva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pahlavon Mahmud va Ahmad Yassaviy asarlaridagi tasavvufiy masalalar, ularning Qur'on oyatlari va hadisi sharifdan sharhlari, misra va baytlarning tahlili va tasavvufiy istilohlardan ayrim misollar keltirib o'tilgan va ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: tavakkul, tasavvuf, fano, hikmat, talqin, Nuri Muhammad, ishq, zikr.

Xorazm tasavvufiy-madaniy muhitining yirik siymalaridan biri bo'lgan Pahlavon Mahmud hikmatli ruboiychilik an'anasini yangi bosqichga ko'targan. Quyida keltirib o'tilgan ruboiylar orqali Pahlavon Mahmud ijodida uchraydigan tasavvufiy tushunchalarning badiiy mohiyati yoritib berilgan.

1. O'zgalarni menga takyagoh qilma,

Muhtoji vaziru podshoh qilma.

Karamingdan qora sochim oqardi,

Oq sochim-la zoru ro'siyoh qilma.

Ushbu parchada Pahlavon Mahmud tavakkul, isti'no (boshqalardan behojatlik), fano (umrning o'tishi), najot istash kabi asosiy tasavvufiy tushunchalarni jamlagan. Quyida shu parchani qur'on oyatlariva hadislardan misollar keltirgan holda baytma-bayt tahlilga tortamiz.

“O'zgalarni menga takyagoh qilma” parchasida shoir insonning bandalarga tayanib qolishini emas, faqat Allohga suyanishini tilamoqda. Tasavvufda ham eng muhim tushuncha “tavakkul” bo'lib, bu insonning butun umidini va suyanishini Allohga topshirishi demakdir.

Qur'oni karimda shunday marhamat qilinadi:

“Kim Allohga tavakkul qilsa, U unga kifoya qiladi”.

Shuning uchun so'fiylar bandasini yoki U bergan ne'matlarni emas, faqatgina Haqning o'zini takyagoh-suyanchiq deb bilishadi.

“Muhtoji vaziru podshoh qilma”.

Insonni mansabdor, boy va kuchlilarga muhtoj qilma. Chunki haqiqiy boylik va kuch-qudrat egasi -yagona Allohdur. Rasululloh (s.a.v.) aytadilar:

“Qo’l (so’rab) oladigan emas, beradigan qo’l yaxshidir”.

Tasavvufda bu holat isti’no-ya’ni bandaga emas, faqat Allohga muhtojlik holati sifatida tushuniladi. Shu sababdan ham so’fiylar hech kimdan hech narsa kutishmaydi. Hatto qilgan xizmatlari evaziga ham haqni faqat Allohdan kutishadi.

“Karamingdan qora sochim oqardi”.

Bu jumla ramziy ma’no kasb etadi. Ya’ni Allohning qahri va sinovlari sababidan umr o’tib, yoshlik (qora soch) ketdi, keksalik (oq soch) keldi. Qur’onda insondagi aynan mana shu jarayon ham Allohning belgisi sifatida zikr qilingan:

“Alloh sizlarni zaiflikdan yaratdi, keyin zaiflikdan so’ng quvvat berdi, so’ngra quvvatdan keyin zaiflik va keksalik berdi...”

Tasavvufda esa soch oqarishi –“fano”, ya’ni dunyo shodliklaridan voz kechib, Allohga yuz tutish jarayonini ifodalaydi.

“Oq sochim-la zoru ro’siyoh qilma”

Bu iltijo: “Allohim, umrim o’tib sochlaringa oq oraladi, endi oxiratda sharmanda qilma, yuzimni doim yorug’ qil” degan ma’noni anglatadi.

Qur’onda shunday oyat nozil etilgan:

“(Qiyomat kuni) yuzlar yorug’ bo’ladi, yuzlar qorong’i bo’ladi...”

“Kimning yuzida Qur’on bo’lsa (Ya’ni uni tilovat qilsa), qiyomat kuni yuzini nurlantiradi.” (Hadis. Bayhaqiy rivoyati).

Yuqorida keltirib o’tilgan oyat va hadislar sharhidan shuni anglashimiz mumkinki, bu baytda tavakkul, isti’no (boshqalardan behojatlik), fano kabi asosiy tasavvufiy g’oyalar mujassamlashgan. Bandaning Allohdan faqatgina uning o’zi suyanchiq bo’lishini, bandalariga muhtoj emasligini, umr o’tib, oxirati yaqinlashganida esa yuzini yorug’ qilishini so’rab qilgan duosidir.

2. Ul qodirki arzu aflok yaratdi,

Ko’ngilda dog’, dilni g’amnok yaratdi.

Mushkin zulflarni-yu, yoqut lablarni

Yerga qoqib, oxirda xok yaratdi.

Berilgan baytning birinchi misrasidan shuni anglashimiz mumkinki, shoir Allohni “Qodir” sifatida ulug’laydi. Chunki osmon (aflok) va yer (arz) yaratish Qur’onda eng buyuk dalillardan biri sifatida keltirib o’tilgan:

“Darhaqiqat, osmonlar va yerni yaratishda, kecha va kunduzning almashishida aql egalari uchun alomatlar bordir”

“Hikmatlar” qatorida “Faqrnoma” asari ham Yassaviy ta’limotining asoslarini ifoda etuvchi risola hisoblanib, unda insonning ruhiy safari, axloqiy komillikka erishish yo’lida bosib o’tiladigan ma’naviy bosqichlar, murid va murshid o’rtasidagi ma’naviy bog’liqliklar bayon etilgan. “Bu asar turkiy tasavvuf tafakkurining shakllanishida muhim o’rin tutadi va Yassaviya maktabining falsafiy poydevorini belgilaydi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pahlavon Mahmud. Ruboiylar. - Toshkent: Fan, 1991.
2. Qur'oni Karim.
3. Ahmad Yassaviy Devoni xikmat. - T., G'. G'ulom nomli nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.
4. Zaripov M. Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotida axloqiy kamolot masalalari. - Toshkent: O'MU, 2020. 52-bet.
5. Al-Buxoriy. Hadis, Al-jome' as-sahih. - T.: «Qomuslar» bosh tahririyati, 1991- 1992 yillar, 1- 4-kitoblar.
6. A. Fitrat, Ahmad Yassaviy: Tanlangan asarlar (nashr. tayyorl. H. Boltaboyev), 2- jild, Toshkent, Ma'naviyat, 2000.

